O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД-60220500
2024 yil “09” 16

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
R.I.Kalmuradov
2024 yil “___” _____

“ETIKA”

Fanidan

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220500 – Falsafa

Fan/modul kodi	Oquv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
ET1104	2024-2025	1	4
Fan/modul turi	**Ta'lim tili-**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		4 soat

1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	Etika	48	72	120

II Fanning maqsadi (FM)	
1	**Fanni o'qitishdan maqsad va vazifalari** - etika va axloqiy tafakkurning paydo bo'lishi, taraqqiyot bosqichlari, etikaning shaxs, fuqarolik jamiyati va davlat hayotida tutgan o'rni, axloqiy anglash va etika tuzilmalarining falsafiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va falsafiy asoslab berishdan iborat. oliy qadriyat bo'lgan etikaning milliylik va umumbashariylik xususiyatlarini tahlil etish, uning hayotdagi yuksak mavqeini talabalar ongiga singdirish, globallashuv jarayonlarida jamiyatning etikaqa bo'lgan ehtiyojini ilmiy asoslash, uning falsafiy mohiyatini umumnazariy mezonlar asosida qiyosiy taxlil etish, jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida etika falsasining asosiy mezoniy tushunchalari va tamoyillariga yangicha yondoshuvni qaror toptirish, zamonaviy etika falsafasining global muammolarini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan xolda ilmiy tahlil qilish.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)	
II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Etika fanining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari** Etika falsafasi - etikaning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlarni o'rganadigan qadimiy falsafiy fan sifatida; uning uch axloqiy hodisa - odob, xulq va etikani uzviy ma'naviy bosqichlar sifatida o'rganishi; etika falsafasining fan sifatida tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy, mezoniy-me'yoriy xususiyatlarga egaligi. Etikaning zamonaviy fanlar bilan aloqasi: etika va falsafa; etika va nafosat falsafasi; etika va dinshunoslik; etika va psixologiya, etika va pedagogika; etika va siyosatshunoslik; etika va milliy g'oya; etika va ekologiya. Milliy mustaqillikni mustahkamlash jarayonida etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni.
M2	**Qadimgi Sharqdagi dastlabki axloqiy g'oyalar va ta'limotlar** Qadimgi Sharq axloqiy tafakkurning beshigi sifatida; Somir (Shumer) va Bobilonda ilgari surilgan axloqiy G'oyalar; Qadimgi Misrdagi axloqiy qarashlar; «Misr mayyitlar kitobi» va «Pxatotep o'gitlari»ning axloqiy mohiyati. Qadimgi Turondagi axloqiy tafakkur; «Avesto» - Turon va Eron xalqlari axloqiy qonun-qoidalarining qadimiy majmui sifatida. Moniylik ta'limotida etika muammolarining o'rtaga tashlanishi; moniylik yodgorligi «Xuastuanift»ning axloqiy xususiyatlari. **Qadimgi Hindi-Xitoy mintaqasidagi axloqiy qarashlar** Qadimgi Hindi-Xitoy mintaqasida «Avesto» ta'limotiga asoslangan vedachilik axloqiy yo'nalishining vujudga kelishi; «Bxagavadgita» va «Artxashastra», yoga, jaynchilik, lokoyata oqimlari; buddhachilik etikashunosligi. Mintaqada daochi-donishmandlar axloqiy qarshlarining keng tarqalishi; Xan davri mutafakkirlvarining (miloddan avvalgi 202 - milodiy 220) axloqiy ta'limotlari; Konfutsiy va uning izdoshlari etika falsafasidagi o'ziga xos jihatlar; konfutsiychilikning mafkuraviylik xususiyati.
M3	**Antik davrda etika** Antik davr etikaning yuzaga kelishida qadimgi Sharq tafakkurining roli. Qadimgi yunon mutafakkiri Suqrot falsafasida antropologik yondoshuvning qaror topishi va uning etika bilan chambarchas bog'liqligi; Aflotunning axloqiy qarashlari; unda diniy-idealistik yo'nalishning ustuvorligi; Arastu - etika falsafasining nazariy asoschisi sifatida; Arastu axloqiy merosining keyingi davr mutafakkirlari qarashlariga ta'siri; Epikurning axloqiy ta'limoti. Qadimgi Rumo etikashunosligi (Tit Lukretsiy Kar, Seneka, Epiktet, Sitseron). Antik davr etika falsafasining ahamiyati.
M4	**O'rta asrlar musulmon Sharqi etika** Islom dinida axloqiy qarashlar. O'rta asrlar musulmon Sharqi etika falsafasida asosiy yo'nalishlarning vujudga kelishi: diniy-hadisiy yo'nalish etikashunosligi (Al-Buxoriy, At-Termiziy); mashshoyyiun faylasuflarning axloqiy ta'limotlari (Forobiy, Ar Roziy, Ibn Sino, Ibn Rushd); tasavvufning mohiyatan etika falsafasi ekani (G'azzoliy, Rumiy); Aziziddin Nasafiyning komil inson konsepsiyasi. **O'rta asrlar Ovro'pa axloqshunosligi** O'rta asrlar Ovro'pa axloqiy tafakkurining o'ziga xos jihatlari; etika va cherkov; Ilohiy Og'ustin - Avgustin Blajenniy ta'limotida ixtiyor erkinligi va muhabbat masalalarining o'rtaga tashlanishi; Foma Akviniy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy qarashlari. Ovro'pa Uyg'onish davri axloqiy ta'limotlari - O'rta asrlardan YAngi davrga o'tishdagi o'ziga xos tafakkur bosqichi sifatida (Valla, Monten), Makiavelli axloqiy qarashlari; makiavellichilik va uning bahsli tomonlari.
M5	**Yangi davr Ovro'pa mutafakkirlarining axloqiyaiy ta'limotlari** YAngi davr etika falsafasining tadrijiylik xususiyati; undagi ratsional va sensual yo'nalishlar (Spinoza, Lokk, Sheftsberi v.b). Olmon mumtoz etika falsafasi; Kantning axloqiy ta'limoti; Fixte, Shelling, Hegel va Foyerbaxning axloqiy qarashlari. Ovro'pa noratsional etika falsafasi; Kirkegaard axloqiy ta'limotining diniy-e'tiqodiy asoslari; Artur Shopenhauer axloqiy qarashlarining ixtiyor tushunchasiga bo'ysundirilishi; Nitsshe etika falsafasida inson muammosi va qadriyatlarni qayta baholash tamoyili. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus mumtoz etika falsafasining vujudga kelishida L. Tolstoy va F. Dostoevskiy axloqiy qarashlarining ahamiyati; Vl. Solovyov, N. Losskiy, N.Berdyaev, I.Ilin, B.Visheslavsev va boshqa mutafakkirlar axloqiy ta'limotlarining mumtozlik xususiyati.
M6	**Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining axloqiy qarashlari** Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning milliy ozodlik mafkurasiga asoslanganligi. Ahmad Donish, Abay va Dilshod Barno ma'rifatchiligidagi ahloqiy tamoyillarning o'ziga xos, yangicha jihatlari; ularda jadidchilik ibtidosining yaqqol ko'zga tashlanishi. Anbar Otin she'riyati va «Qarolar falsafasi» risolasida ko'tarilgan axloqiy muammolarning keng qamrovli ijtimoiy ahamiyati; Abdulla Avloniyga mansub «Turkiy guliston yoxud etika», Fitratga mansub «Oila» va «Najot yo'li» asarlarining axloqiy mohiyati; ular axloqiy qarashlarining milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi bilan uyg'unlashib ketganligi. Jadid-ma'rifatchilarning Vatan va millat fidoyilari sifatidagi namunaviy ahamiyati; jadid matbuotining milliy ahloqiy tarbiya borasidagi xizmatlari.

M7	**Etikaning kelib chiqishi, ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov va dastlabki axloqiy qonun-qoidalar** Etikaning faqat insongagina ato etilgan ma'naviy ne'mat ekani; uning kelib chiqishi doirasida diniylik va dahriylik bilan bog'liq ikki xil qarashning mavjudligi; bu boradagi diniylik va dunyoviylik tushunchalarining o'zaro dialektik aloqadorligi. Ixtiyor erkinligi tushunchasi va uning zaruriyat talabi bilan oqilona cheklanish xususiyati; axloqiy tanlov tushunchasi; ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning ijtimoiy zaruriyat ekani; ularning mohiyatan eng dolzarb axloqiy muammo sifatida namoyon bo'lishi. Insoniyat jamiyati tarixidagi dastlabki axloqiy qonun-qoidalarning vujudga kelishi; ularning e'tiqodiy hissiyotlar bilan bog'liqligi masalasi; axloqiy qonun-qoidalarning taraqqiy topib, takomillashib borishi. Etikaiy ravnaq tushunchasi; uning axloqiyiy taraqqiyot tushunchasi bilan uzviyligi va farqli tomonlari; axloqiy ravnaqning nazariy muammo sifatidagi bahsli jihatlari; axloqiy ravnaq va sivilizatsiya; axloqiy ravnaq va urbanizatsiya.
M8	**Etika turlari va etika tuzilmasi** Etika turlari tushunchasining falsafiy mohiyati; insonparvarlik etikai va uning shaxs va jamiyat erkinligi bilan bog'liqligi; obro'parastlik etikai va uning totalitar tuzumlar etikai sifatidagi talqini; uning shaxs ma'naviy rivojlanishidagi salbiy ahamiyati. Etika tuzilmasi tushunchasi va bu borada turli xil qarashlarning mavjudligi; etika tuzilmasining uch asosi: axloqiy ong, axloqiy hissiyot, axloqiy munosabatlar. Etikaiy ong va unda urf-odatlar hamda an'analarning o'rni; axloqiy hissiyotning o'ziga xos ruhiy kechinma ekani; axloqiy munosabatlar va ularning axloqiy faoliyatga ta'siri. **Etikaning ma'naviyat tizimidagi o'rni** Ma'naviyat tushunchasi va uning turlicha talqini, ma'naviylikning mohiyatan insoniylik ekani; ma'naviylik va moddiylikning inson hayotidagi o'rni; ma'naviyatning tizim sifatida namoyon bo'lishi. «Etika - ma'naviyatning o'zagi» ekani; etikaning boshqa ma'naviy tuzilmalar bilan o'zaro aloqalari: etika va din; etika va xuquq; etika va san'at; etika va siyosat; etika va fan; etika va mafkura. Etikaning ma'naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik xususiyati.
M9	**Etika falsafasining asosiy mezoniy tushunchalari** Etikadagi fazilat va illat atamalarning qutb tushunchalar sifatidagi mohiyati; ularni guruhlashtirish muamosi. Etikaning milliy va umuminsoniy mohiyati va xususiyatlari. Etika tushunchalari ibtidosining axloqiy hissiyotga borib taqalishi. Muhabbat – etika falsafasining eng qamrovli mezoniy tushunchasi - kategoriyasi sifatida; Muhabbatning turlari: Allohga, Vatanga, millatga, ota-onaga, farzandga, insoniyatga, go'zalikka muhabbat; muhabbat va nafrat; muhabbat va rashk. Ezgulik mezoniy tushunchasi; ezgulik va haqiqat, ezgulik va go'zallik, ezgulik va yovuzlik; yaxshilik tushunchasi va uning ezgulikdan farqi; yaxshilik va yomonlik; adolat; burch; vijdon; nomus; ideal; hayotning ma'nosi; baxt; o'lim, o'lmaslik va evtanaziya tushunchalari. **Axloqiy tamoyillar** Etikaiy tamoyillar va ularning amaliyotda namoyon bo'lish shakllari; axloqiy tamoyillar va mezoniy tushunchalar; axloqiy tamoyillarnig bir-biri bilan uzviy aloqadorligi; etika falsafasida me'yoriy etikashunoslik va metaetikashunoslik tushunchalarining vujudga kelishi hamda ularning o'zaro ziddiyatli tomonlari. Insonparvarlik - eng qadimiy va muhim axloqiy tamoyil sifatida; erkparvarlik, vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillarining jamiyat axloqiy hayotida tutgan o'rni; fidoyilik va ziyolilik tamoyillarining axloqiy mohiyati; haqiqatparvarlik, mehnatsevarlik, jo'mardlik, o'zbekchilik, mehmondo'stlik va boshqa tamoyillar.

	Axloqiy me'yorlar Etikaiy me'yorlar va ularning axloqiy tamoyillar bilan ichki bog'liqligi; axloqiy me'yorlarning axloqiy talab shakllari sifatida namoyon bo'lishi; ularning juftlik xususiyatlari; birini biridan farqi va bir biriga «o'tib turishi». Halollik va nopoklik, to'g'rilik va egrilik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, insoflilik va insofsizlik, xushfe'llilik va badfe'llik, shirinso'zlik va qo'pollik, kamtarinlik va maqtanchoqlik singari me'yorlarning shaxs axloqiy hayotida aks etishi.
M10	**Nikoh va oilaning axloqiy voqelik sifatidagi xususiyatlari** Nikoh va uning mohiyatan axloqiy munosabat ekani; nikohning diniy va fuqaroviy asoslari: nikoh va muhabbat, nikoh va huquq, nikoh va din; nikohning zaruriyatga aylangan erkinlik ekani; unda an'anaviy va zamonaviy urf-odatlarning aks etishi; Oila ma'naviy-ijtimoiy muhit sifatida; oilada erkak va ayolning o'rni; oilaviy mulk muammosi; oilaning ilk tarbiya maskani ekani; ota-onalik va farzandlik burchlari; oila buzilishi va uning turlari; oila buzilishining oqibatlari. **Fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari** Fuqarolik jamiyatining mavjud bo'lish shart-sharoitlari; uning oila bilan davlat o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy bosqich ekani; fuqarolik jamiyatidagi o'z-o'zini boshqarish tizimi va uning ahamiyati; milliy-mintaqaviy fuqarolik jamiyatining vujudga kelishida mahallaning roli; fuqarolik jamiyatining tabaqaviylik xususiyati va unda mehnatning roli;
M11	**Etikaning zamonaviy muammolari axloqiy madaniyat** Shaxs axloqiy madaniyati - axloqiy fikrlash madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilma sifatida; unda jamiyat axloqiy talablari bilan shaxsiy axloqiy tajribaning uyg'unlashib ketishi. Muomala odobi; uning inson uchun o'zini namoyon etish usullaridan biri ekani; muomala odobining shaxs ichki madaniyati bilan bog'liqligi; hissiy madaniyat va o'zni tutish madaniyati; uning xulqiy go'zallik sifatida namoyon bo'lishi; Muomala odobida imo-ishora, so'z va xatti-harakatning o'rni. Etiketning axloqiy munosabat sifatidagi mohiyati; etiket - inson tashqi madaniyatining ifodasi, etiketning umumtalab tarzida qat'iy qonun-qoidalarga asoslanishi; etiketda erkinlik va zarurat mezonlarining o'rni; etiketning ijobiy va salbiy jihatlari; etiket va odob; etiket va takalluf; etiket va mulozamat. Etiket qamrovining kengligi; uning turlari va darajalari; siyosiy arbob etiketi; diplomat etiketi; taklif va tashrif etiketi; mehmondorchilik etiketi; teatr etiketi v.h. Kasbiy odob tushunchasining tarixan tarkib topganligi; kasbiy faoliyat va kasbiy odob; kasbiy odobning axloqiy madaniyat tuzilmasidagi o'rni; unda kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatlarining dialektik in'ikosi; uning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Kasbiy odob turlari: shifokor odobi; rahbar odobi; xizmatchi odobi; xuquq-tartibot xodimlari odobi; zamonaviy pedagog odobi; olim odobi; injener odobi; jurnalist odobi v.h
M12	**Ahloqiy tarbiya hamda uning asosiy vositalari va yo'llari** Etikaiy tarbiyaning insonni shaxs sifatida kamolotga etkazuvchi uzluksiz jarayon ekani; uning aqliy va jismoniy tarbiya bilan uyg'unligi; unda pedagogik tarbiya unsurlarining qo'llanilishi; axloqiy tarbiya va estetik tarbiya; ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning asosiy vositalari va yo'llari; unda an'anaviy va yangicha usullarning qo'llanilishi; shaxs axloqiy tarbiyasida individual va jamoaviy yondashuvning ahamiyati; san'at va matbuotning tarbiyaviy roli; oila, jamoa va jamiyatdagi namunaviylik tamoyilining axloqiy tarbiyaga ta'siri. **Etikaning ahamiyati va global muammolari** Fuqarolik jamiyati va huquqiy-demokratik davlat barpo etishda etikaning ahamiyati; uning zamonaviy shaxs ma'naviy tarbiyasini nazariy asoslashga qaratilgan, jamiyat a'zolarini

	yakdillikka chorlovchi fan sifatidagi mavqei. Inson va muhit munosabatlarining axloqiy jihatlari; biosfera, noosfera va etosfera (axloqiy muhit) tushunchalari; Er yuzida axloqiy muhitni vujudga keltirishda etikaning o'rni; ilmiy-texnikaviy ravnaq va unda biologik etika; biologik etika muammosining qamrovliligi va uning yangicha talqini. Inson zotining sofligini, genini saqlab qolish, ekologik muammolar, insoniyat hayotida tinchlik, gumanizmni saqlab qolish," urushga yo'l yuq" g'oyasining ahamiyati
	III. Mashg'ulotlar shakli: seminar mashg'uloti
S1	Etika fani, tadqiqot doirasi, maqsad va vazifalari
S2	Etikaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati. Etika tushunchasining zamonaviy fanlar bilan aloqasi. Etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni va vazifalari.
S3	Axloqiy tafakkur taraqqkkiyotining asosiy bosqichlari. Qadimgi dunyo axloqiy ta'limotlari
S4	Islom dini axloqiy ta'limot sifatida. O'rta asrlar musulmon Sharxi axloqiy tafakkuri: Temur va Temuriylar davri axloqiy tafakkuri
S5	O'rta asrlar va yangi davr Ovrupa mutafakkirlari axloqiy qarashlari va ta'limotlari.
S6	Eng yangi davr etikashunosligidagi yunalishlar
S7	Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining axloqiy qarashlari
S8	Etika tuzilmasi: Etikaning kelib chiqishi, ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov va dastlabki axloqiy qonun-qoidalar
S9	Etikashunoslikning asosiy mezoniy tushunchalari, ularning inson ma'naviyatining mezoni, ulchovi ekanligi: Yaxshilik va yomonlik,baxt, adolat, vijdon, iymon, diyonat, burch,iroda, or-nomus, sharm-xayo mezoniy tushunchalari.
S10	Axloqiy tamoyillar va meyorlar, ularning falsafiy mohiyati: Axloqiy madaniyat Axloqiy tarbiya hamda uning asosiy vositalari va yo'llari
S11	Nikoh va oilaning axloqiy voqelik sifatidagi xususiyatlari
S12	Etikaning ahamiyati va uning zamonaviy global muammolari

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Etika" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

t/r	Mavzu nomi
1	Etika fani, tadqiqot doirasi, maqsad va vazifalari
2	Etikaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati. Etika tushunchasining zamonaviy fanlar bilan aloqasi. Etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni va vazifalari.
3	Etikaviy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Qadimgi dunyo axloqiy ta'limotlari
4	Islom dini axloqiy ta'limot sifatida. O'rta asrlar musulmon Sharki axloqiy tafakkuri
5	Temur va Temuriylar davri axloqiy tafakkuri
6	O'rta asrlar va yangi davr Ovrupa mutafakkirlari axloqiy qarashlari va ta'limotlari.
7	Eng yangi davr etikashunosligidagi yunalishlar va Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining axloqiy qarashlari
8	Etika tuzilmasi.
9	Etikaning ma'naviyat tizimidagi o'rni
10	Etikashunoslikning asosiy mezoniy tushunchalari, ularning inson ma'naviyatining mezoni ulchovi ekanligi
11	Yaxshilik va yomonlik, baxt, adolat, vijdon, iymon, diyonat, burch,iroda, or-nomus, sharm-xayo mezoniy tushunchalari
12	Etikaviy tamoyillar va ularning falsafiy mohiyati
13	Dunyo xalqlarining axloqiy mentaliteti
14	Fuqarolik jamiyati shakllantirishda oila va davlatning ahamiyati
15	Etikaning zamonaviy muammolari va zamonaviy komil inson masalasi
16	Etikaviy madaniyat va uning turlari
17	Ahloqiy tarbiya, etikaning ahamiyati va global muammolari

Etika Talabalar etika ilmining vujudga kelishi va uning bosh masalasi to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Etikaviy tafakkur shaxs axloqiy madaniyatida jamiyat axloqiy talablari bilan shaxsiy axloqiy tajribaning uyg'unlashib ketishi, axloqiy tarbiyaning insonni shaxs sifatida kamolotga etkazuvchi asosiy omil ekanligini bilib oladilar; etikaning milliy va umumbashariy xususiyatlarini tahlil, etish, uning ma'naviyat tizimidagi yuksak mavqei, ixtiyor erkinligining zaruriyat talabi bilan oqilona cheklanish xususiyati, axloqiy tanlov tushunchasi, shaxs axloqiy hayotining ma'naviy, ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni, axloqiy tamoyillar va mezoniy tushunchalar, axloqiy ravnaq tushunchasi, ixtiyor erkinligining zaruriyat talabi bilan oqilona cheklanish xususiyati, etiketning axloqiy munosabat sifatidagi mohiyatini aniqlash, shaxs axloqiy tarbiyasida individual va jamoaviy yondashuv ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • **"Etika"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba **"Etika"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Abdulla Sher. Etikashunoslik. Ma'ruzalar matni. T.2000. 2. E.Umarov, F. Zagriddinova. Etika.T., 2005. 3. J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev. Falsafa: Darslik. -Samarqand. 2021. – 712. **Qo'shimcha adabiyotlar.** 1. Avesto. –T.: Sharq. 2001. 2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. J.2. –T.: Ma'naviyat 1994.

3. Arastu. Etikai Kabir. –T.: 2006.
4. Jomiy. Bahoriston. –T.: Yozuvchi. 1997.
5. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din. Birinchi kitob. –T.: Mavorounnahr. 2003.
6. Islom tasavvufi manbalari. –T.: “Oqituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.
7. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: YOzuvchi. 1994.
8. Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq me’rosi nashriyoti, 1994.
9. Komilov N. Komil inson - millat kelajagi. –T.: O‘zbekiston. 2001.
10. Кропатин. Этика. –М.: Политиздат, 1991.
11. Navoiy. Mahbub ul-qulub. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 20 tomlik, 14-tom, -T.: Fan, 1998.
12. Rumiy. Ichingdagi ichingdadir. –T.: YOzuvchi, 1997.
13. Umar Xayyom Nishopuriy – Sharqning buyuk mutafakkiri. -Tehron-Toshkent, 2004.
14. Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004.
15. Fitrat. Oila. –T.: Ma’naviyat, 1999.
16. Forobiy. Fozil shahar odamlari. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
17. Fromm E. Dusha cheloveka. –M.: Respublika, 1992.
18. Sher A. Tasavvuf, G‘azzoliy va go‘zallik falsafasi. //Sog‘lom avlod uchun. 2002. №2.
19. Sher Abdulla. Etika. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 13 jildlik. J. 10. T., O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.
20. Shopengauer A. Svoboda voli i nravstvennost. M. Respublika. 1992.
21. A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq.-T.: 1993 y.
22. 41. Olloyorov M.Mantiq, estetika va axlokshunoslik fanlari tayanch atamalarining izohli lug‘ati.
23. Olloyorov M., M.Olloyorova Estetika va etikashunoslik fanlarini o‘rganish buyicha uslubiy tavsiyalar.,Samarqand, 2006.
24. OlloyorovM. Olloyorova M. Etikashunoslik fanini mustaqil o‘rgnish bo‘yicha ma’ruzalar kursi. Samarqand 2007.
25. Falsafa tarixi. T., 2004

Elektron ta’lim resurslari:

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz/uz/
3. www.ziyonet.uz.
4. www: ref. uz.
5. http://www.lex.uz/.
6. www.infomicer/net.
7. www.turkistonsarkor.uz
8. www. Manaviyat.uz.pak.uz
9. www.philosophy.ru.
10. http//www.intencia.ru.
11. http://www.anthropology.ru
12. http://www.ido.rudn.ru.
13. http://www.filosofia.ru.
14. http://www.phenomen.ru.
15. http://www.lib.ru/FILOSOF.
16. www.ilm.uz.

7. Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv uslubiy Kengashining 2024_____ yil “___ ” _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.

8. **Fan/modul uchun mas’ul:**
O.Gaybullayev – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g’oya” kafedrasi professori

9. **Taqrizchilar:**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, , Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g’oya” kafedrasi prof. (ichki) A.Samadov
Samarqand davlat chеł tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafesrasi professori v/b falsafa fanlari doktori Komilov R.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova

Falsafa va milliy g‘oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o‘quv ishlari bo’yicha prorektor **prof. A.Soleev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g’oya” kafedrasida tuzilgan "Etika” faniga

TAQRIZ

Fan dasturida fani yo'nalishi xusu«iyatlarini hisobga olgan hołda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon ctish uchun zarur ko'rsa(ma va tavsiyalar kcltirilgan. Shuningdck mustaqil ish shakllari va mavzulari, ranni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari harnda asosiy qo'shimchalar batafsil bayon ctilgan. Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalari qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarni o ˢ z ichiga Olgan.

Fan dasturi oliy ta'lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Etika” fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujat hisoblanadi.

Dasturda "Etika” fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga Olgan hołda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natljalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga ołgan.yuqoridagilarni hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan talablarga mos.

Shundan kelib chiqib, "Etika” fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti,
“Falsafa va milliy g’oya” kafedrasi **prof. A.Samadov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g’oya” kafedrasida tuzilgan "Etika” faniga

TAQRIZ

Yaratilgan fan dasturi oliy ta'lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o'tilagan "Etika” fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajtnini bclgilab bcradigan rasmiy pedagogik huiiat hisoblanadi. Shu o'rinda tafakkur tarzi metodologiyasi fanini o'qitilishidan maqsad mustaqil fikrlashni, jamiyat, uning asosiy hayot sohalarida kechayotgan murak'kab ijtimoiy jarayonlar haqida bilimlar berish orqali falsafiy dunyo qarashni shakllantirish, jamiyatda qiladigan qonunlarning o'ziga xos jihatlarini jamiyatning real hayoti, unda kechayotgan voqea, jarayonlarni to'g'ri anglash qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatni ilmiy bilim yo'llari, usullarini qo'llashdan iborat.

Fan dasturi oliy ta' lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Etika” fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik huijat hisoblanadi.

Dasturda "Etika” fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga Olgan hołda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga ołgan.yuqoridagilarni hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

Samarqand davlat cheł tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafesrasi professori v v b falsafa fanlari doktori

R.R. Komilov

Komilov NING IMZOSINI TASDIQLAYMAN SamDCHTI KADRLAR BO'LIMI BOSHLIG'I

nscanner yordamida skanerlanga